

TURON TEATR TRUPPASI FAOLIYATINI TURKISTON VAQTLI MATBUOT SAHIFALARIDA YORITILISHI

Tursunboyev Yahyobek Mahmudjon o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkistonda ilk teatr truppasi hisoblangan Turon teatr truppasining faoliyatini o'sha davrda Turkiston vaqtlı matbuot sahifalarida yoritilishida haqida ma'lumotlar keltiriladi. Truppaning faoliyati "Oyna", "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" kabi matbuot sahifalarida yoritib borilgan.*

Kalit so'zlar: *Truppa, Oyna, gazeta, matbuot, maqola, Turon, Turkiston, Toshkent, Sadoyi Turkiston, Sadoyi Farg'ona.*

"Padarkush"ning Toshkent trupпасi tomonidan sahnalashtirilishi kutilgandan ko'ra a'loroq natijalar berdi. Bu voqea Turkistondagi shu davrda mavjud bo'lgan barcha matbuot nashrlarida yoritilgan edi. Jumladan, "Turkiston viloyatining gazetasi"ning axboroti g'oyat harakterli: "Turkiston viloyati taraqqiylik Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga yarim asr bo'lib, sartiylarda bu o'yin birinchi marotaba bo'lib ham shu darajada yaxshi o'xshatdilarki, har qaysi teatrni ko'rib, teatr ishiga omil kishilar bularning, yangi o'rganganlariga inonmay, balki bular bir necha yil Ovrupada mashq qilgan odamlar, deb xayol qiladi... Rusiya hukumatiga tobe bo'lganiga 300 yil bo'lgan tatarlardan necha daraja ortiq deganda mubolag'a bo'lmas. U muqallid o'yinida sartiylar, tatarlar shu daraja ko'p bo'ldilarki, keyin kelgan odamlarga bilet yetmay qolib, teatr ichida va tepalarida odamlar muru malahdek qaynab turdilar. Rusiyalar ham bo'ldilar. Sartiylarning bu tariqa ko'p bo'lganliklari teatrğa ishqlari va taraqqiyga qadam qo'yishlarining alomati bo'lib, teatrdan tushgan aqcha Toshkent jamiyati imdodiyasi foydasiga berilar ekan"¹.

Demak, spektakl hamma jihatdan baland saviyada o'tgan. Yuqoridagi xabarni sezgan muxbir zamonaviy teatr san'atidan anchagina ma'lumotlik shekilli, spektakl va aktyorlar ijrosini Ovrupo (asosan rus) va tatar teatrlarining uzoq yillik tajribalari bilan qiyoslab, sirli havaskorlarning san'atiga yuksak baho bermoqda. Bu baho, birinchidan, Toshkent havaskorlari teatr ishlariga "Padarkush" munosabati bilangina ikki-uch oyda kirishmay, balki avvalroqdan tajriba orttirib yurganlarini, ikkinchidan esa, 1914-yilning fevral oxirlariga qadar muayyan profssionallik kasb etganlarini anglatadi. Bu fikrni shu voqea munosabati bilan "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yilning 16-soni va ayniqsa, "Oyna" jurnalining 22-sonida bosilgan "Toshkandda milliy teatr" nomli batafsil axborot-taqrizlardan ham sezish

¹ Ризаев Ш. Жади́драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 64.

mumkin. Xususan, Tuzil Jonboyev imzosi bilan “Oyna”da bosilgan axborot-taqrizda spektaklning har bir pardasi alohida baholanib, birinchi pardada Boy rolini Abdulla Avloniy, Domla rolini Ziyoboyev, Ziyolini Asomiddin Xo’jayev, Xayrullani Xoniy janoblari; ikkinchi pardada – mayxona manzarasi – Davlatzo’r rolini Xoniy, Nor rolini Poshshoxo’jayev, Tangriqul rolini Shohinoyatov, Boyvachchani – Badriddin A’lamov; uchinchi pardada Boy xotinini A. Ziyoboyev, Domla rolini Husayniy janoblari, Pristav rolini Mirzaxonovlar²maromiga yetkazib ijro etganlari va ularning sahnada aytayotgan so’zlari tomoshabinlarga juda katta ta’sir ko’rsatib, xalq orasida qattiq ovoza bo’layotgani aytiladi.

Turkiston o’lkasida mavjud bo’lgan mahalliy matbuotda o’sha davrlarda o’lka hayotining dolzarb masalalariga bag’ishlangan turli xildagi maqolalar berib borilar edi. Turkistonda milliy teatr boshlangandan so’ng bu matbuot ham teatr borasida, xususan, ilk marotaba “Padarkush” ni Toshkentda o’ynalgan kuniga bag’ishlab ham maqolalar berilgan. Matbuot, birinchi navbatda “Turkiston viloyatining gazetasi” (1914-yil 6-mart) spektakl va unda band ijrochilar mehnati va mahoratini yuksak baholab, shunday yozadi: “Turkiston viloyati taraqqiylik Rusiya hukumatiga tobe bo’lganiga yarim asr bo’lib, sartiylarda bu o’yin birinchi marotaba bo’lib ham shu darajada yaxshio o’xshaydilarki, har kimu teatrni ko’rib, teatr ishiga omil kishilar bularning, yangi o’rganganligiga ishonmay, balki bular bir necha yil Yevropada mashq qilganodamlar, deb hayol qiladi... Rusiya hukumatiga tobe bo’lganiga uch yuz yil bo’lgan tatarlardan necha darajada ortiq deganda mubolag’a bo’lmas. U muqallid o’yinida sartiylar, tatarlar shu daraja ko’p bo’ldilarki, keyin kelgan odamlarga bilet yetmay qolib, teatr ichida va tepalarida odamlar mo’ru malahdek qaynab turdilar. Rusiyaliklar ham bo’ldilar. Sartiyliklarning bu tariqa ko’p bo’lganliklari teatrga ishqilari va taraqqiyga qadm qo’yishlarining alomatlari bo’lib, teatrdan tushgan aqcha Toshkent jamiyati imdodiyasi foydasiga berilar ekan”³.

Toshkentlik havaskorlarning katta muvaffaqiyati, ularning shu yo’nalishdagi faoliyatlarini yanada kengayishi va rivojlanishi uchun muhim turtki bo’ldi. 1916-yilga kelib Samarqanddagi truppa doimiy sahna kuchlarining mavjud emasligi sababli tarqalib ketgan bo’lsa, bu paytga kelib esa Toshkentdagi “Turon” teatr trupпасi yangi-yangi kuchlar hisobiga kengayayotgan edi. Ushbu teatr jamoasi Miyon Buzruk Solixov va G’ulom Zafariylar ta’kidlaganidak, 1914-yil oxirlarida rasman “Turon to’dasi” nomini olib, shu truppa nomidan har choq teatr o’ynab keldilar.

² Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 65.

³ Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи / Дарслик-монография. – Т.: “ARTPRESS” Co.Ltd., 2010. – Б. 66.

“Turon” truppassi shakllanishi va taraqqiyotida tatar hamda ozarbayjon rejissyorlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etdi. Tatar rejissori Muhammadyorov yo‘l-yo‘riqlari bilan ish boshlagan truppa “Padarkush”ni ozarbayjonlik rejissyor Aliasqar Asqarov rahbarligida sahnalashtirdi. A. Asqarov birinchi postanovkadan so‘ng, boshqa shaharlarga ham taklif etilishi munosabati bilan, truppani tark etadi.

1914 - 1915-yillarda “Turon”ga tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy va Mustafo Mansurov ijodiy jihatdan boshchilik qilib turadilar. 1914-yil so‘nglarida truppa Xoji Mu‘in va Nusratulla Qudratullaning “To‘y” dramasini sahnalashtiradi. Spektakl huddi avvalgi “Padarkush” kabi muvaffaqiyat qozonib, “Sadoyi Turkiston” gazetasi unga “Milliy teatr” sarlavhali maxsus maqola bag‘ishlaydi. Maqolada pyesa mazmuni hikoya qilinib, so‘ng spektaklning sahnalashtirilishi, aktyorlar ijrosi haqida mulohaza yuritiladi. Olimboy rolini Avloniy, Olimboyning mahrami Abdulahad rolini Q. Ismatillayev, Juvon rolini A. A‘lamov Domla rolini Sh. Shoinayatov, Oqsoqol - mahalla ellikboshisi rolini M. Mirazimovlar ijro etishadi⁴. O‘z “vazifalarini darajai oliyda iyfo qiluvchilar” orasida Abdulla Avloniy ijrosidagi Olimboy obrazi ajralib turardi. Bu ijroni “To‘y” spektaklining 1-dekabrida ko‘rsatilgan ilk spektaklni yorituvchi taqrizda A. Avloniyning mahorati shunday baholanadi: “A. Avloniy, Olimboy obrazi qanday bo‘lishi lozim bo‘lsa, huddi uni shunday mujassam o‘laroq ko‘z oldimizga keltirib qo‘ydi. Avloniyning sahnada ko‘rsatgan mahorat va iste‘dodiga tashakkur qilmasdan o‘tmoqni vijdon qabul etmaydi” (Sadoyi Turkiston”, 1915, № 54)⁵.

Matbuotning xabariga qaraganda o‘n olti personaj vakillaridan bu katta spektakl ijrochilarining baland mahorati yetuk teatr aktyorlariga xos mahorat bilan o‘ynalgan. 1914-yilning 22-dekabrida namoyish etilgan “To‘y”ning ikkinchi spektakliga “Sadoyi Turkiston”ning 1915-yil 6-yanvar sonida chop etilgan Abduvahob Murodiyning taqrizida shunday baho beriladi: Bu da‘fa fojea yana ta‘sirli va tabiiyroq chiqdi. Aktyorlar fojea qahramonlaridek bo‘lib, hech tortinmasdan o‘ynadilar. Toshkand yoshlaridan ... bu aktyorlar hay‘ati o‘zlarining sahnada ko‘rsatgan mahoratlari ila ko‘ngillarda yanglish umidlar yondirmakka⁶ boshladilar. Rollar ko‘p bo‘lmoq ila barobar vazifalarni daraja oliyda shifo qiluvchilar Abdulla Avloniy, Badriddin A‘lamov, Mulla Shorahim Shoinayatov, Musaxon Mirzaxonov afandilardir. Bu afandilarning harakatlarini, yurish-turishlarini ne qadar tanqid ko‘zi ila qaragam ham tabiiy harakatga soxta

⁴ Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи / Дарслик-монография. – Т.: “ARTPRESS” Co.Ltd., 2010. – Б. 67.

⁵ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойлик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 68.

⁶ Uyg‘otishga.

beraturgan o'runlari yo'q darajada oz chiqdi. Binoan alayx (ilayx) bu afandilarni man truppaning qahramon a'zolari, millatning eng muqtadir aktyorlari deb taniyman"⁷.

Taqrizchi kichik rollarni ijro etgan Abdisame'qori Ziyoboyev, Badalxo'ja Saidxo'jayev, Hasanxo'ja Xoniy, Eshonxo'ja Xoniy, Tursun Toshmuhammadov, Siddiq Avloniy, Bashirulla Xo'jayev, Muhammadjon Poshshaxo'jayev, Mirjalil Karimovlar talqinini ham yuksak baholaydi⁸.

Bundan keyin repertuarida ana shu ikki milliy spektakl va bir necha usmonli turk, ozarbayjon, tatar tillaridan tarjima qilib qo'yilgan sahna asarlari bilan trупpa Farg'ona shaharlari bo'ylab gastrolga chiqadi. Bir necha oy davom etgan bu gastroldanko'zlangan maqsadlar mavjud edi, birinchidan, bu spektakllarni namoyish etish orqali mablag' topib, moddiy qiyinchiliklar tufayli yopilib qolishi arafasiga kelib qolgan "Sadoyi Turkiston" gazetasini saqlab qolish bo'lsa, ikkinchidan, vodiy yoshlariga ma'rifiy-madaniy xizmat ko'rsatib, ularni ham teatr ishlariga da'vat qilish edi. Teatr truppasining gastrollari haqida o'sha davrning mashhur matbuot sahifalaridan bo'lgan "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida ma'lumot berib boriladi. Xususan ulardagi ma'lumotlarga qaraganda spektakllarga yerli ziyolilar ham yaqindan yordam berayotganlari, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda esa ayrim teatr o'ynashga ishtiyoqi baland va iste'dodli yoshlar kichikroq rollarga ham jalb etilganligi bayon qilinadi.

Bunday xabarlarni tasdiqlovchi bir hujjat Abdulla Avloniy memorial muzeyida saqlangan. Bu "Turon" truppasining Xo'jand shahridagi gastrollari munosabati bilan chiqarilgan afisha bo'lib, unda 1915-yilning 1, 2 va 3 iyun kunlari Toshkent havaskorlarining xo'jandlik yerli yoshlar ishtirokida "Padarkush", "To'y" milliy pyesalari hamda "Badbaxt kelin" nomli usmonli turkchadan tarjima qilinib sahnalashtirilgan spektakllarni namoyish etishlari ma'lum qilingan. Mazkur afishada Xo'jand havaskorlarining ishtirokidan tashqari, yana bir muhim ma'lumot mavjud. Ya'ni "Padarkush" va "To'y" spektakllari haqidagi tafsilotlar tagida ularning postanovkachisi Nizomiddin Asomiddinxo'ja o'g'li, "Badbaxt kelin" spektakli ostiga esa rejissyor Abdulla Avloniy deb yozilgan. Demak, "Padarkush" va "To'y"ni ikkinchi marotaba sahnalashtirishda N. Xo'jayev rejissyorlik qilgan. "Padarkush" va "To'y"dan tashqari, N. Xo'jayev fransuz hayotidan olib yozilgan "Qotili Karima" melodramasini ham sahnalashtirgani ma'lum. Bu spektakl 1916-yil 10-mayda Toshkent Eski shaharidagi Yozlik teatrda ko'rsatilgan. Ayni paytda Abdulla Avloniyning ham rejissyorlik bilan shug'ullangani "Turon" truppasi

⁷ Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи / Дарслик-монография. – Т.: "ARTPRESS" Co.Ltd., 2010. – Б. 68.

⁸ Шарипов Р. Туркистон жадиличлик ҳаракати тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – Б. 68.

misolida milliy rejissura san'ati ham shakllana boshlagan edi, deyishimiz uchun yetarli asos beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – 320 б.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Т.: Маънавият, 2002. – 400 б.
3. Турсунов Т. XX аср ўзбек театр тарихи. / Дарслик-монография. – Т.: «ART PRESS» Co.Ltd, 2010. – 586 б.
4. Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 2002. – 176 б.
4. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
5. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
6. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).
7. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
9. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
10. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.
11. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.
12. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.
13. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

14. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт oydinboymatova80@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

15. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

16. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

17. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

18. Исмаилова, М. Н., & Кобиров, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп, 60-62.

19. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o 'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o 'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.

20. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.

21. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN.

22. жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.

4. 23. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).